

BOZOR SHAROITIDA INFLYATSIYA VA UNI JILOVLASH YO‘LLARI

Panjiyev Muxtor Alisher o‘g‘li

Termiz davlat universiteti

Iqtisodiyot va turizm fakulteti

Moliya va moliyaviy texnologiyalar

yo‘nalishi 4-kurs talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqola inflyatsiyani - narxlar umumiy darajasining doimiy oshishi, shakllanishi va uni jilovlash vositalarini (monetar, fiskal hamda tarkibiy-islohot choralari) tahlil qiladi. Tadqiqotning maqsadi O‘zbekiston sharoitida inflyatsiyani barqarorlashtirish mexanizmlarini aniqlash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Ishda tahliliy va taqqosiy metodlar, statistik kuzatuv hamda milliy va mintaqaviy tajribalar qo‘llanildi. Tadqiqot natijasida Markaziy bankning inflyatsion targetlash siyosati hamda asosiy stavkaning roli, import diversifikatsiyasining ahamiyati ta’kidlandi. Maqola nazariy va amaliy tavsiyalarni jamlab, narx barqarorligini ta’minlash uchun muhim choralarni belgilaydi.

Kalit so‘zlar: Inflyatsiya, inflyatsion targetlash, pul-kredit siyosati, fiskal siyosat, tarkibiy islohotlar, Markaziy bank, asosiy stavka, narx barqarorligi, import diversifikatsiyasi, tashqi iqtisodiy ta’sirlar, remittansiyalar, ta’minot zanjiri, iqtisodiy xavfsizlik.

ИНФЛЯЦИЯ В РЫНОЧНЫХ УСЛОВИЯХ И СПОСОБЫ ЕЁ КОНТРОЛЯ

Панджиев Мухтор Алишер угли

Термезский государственный университет

Факультет экономики и туризма

Студент 4-го курса направления

«Финансы и финансовые технологии»

Аннотация. Данная статья анализирует инфляцию — постоянный рост общего уровня цен, её формирование и инструменты сдерживания (монетарные, фискальные, а также структурно-реформаторские меры). Цель исследования заключается в выявлении механизмов стабилизации инфляции в условиях Узбекистана и разработке практических рекомендаций. В работе применены аналитические и сравнительные методы, статистическое наблюдение, а также национальный и региональный опыт. В результате исследования подчёркнута роль политики инфляционного таргетирования Центрального банка и ключевой ставки, а также важность диверсификации импорта. Статья объединяет теоретические и практические рекомендации и определяет ключевые меры для обеспечения ценовой стабильности.

Ключевые слова: инфляция, инфляционное таргетирование, денежно-кредитная политика, фискальная политика, структурные реформы, Центральный банк, ключевая ставка, ценовая стабильность, диверсификация импорта, внешние экономические воздействия, ремитирования, цепочки поставок, экономическая безопасность.

INFLATION IN MARKET ECONOMY CONDITIONS AND WAYS TO CURB IT

Panjiyev Mukhtor Alisher o'g'li

Termez State University

Faculty of Economics and Tourism

4th-year student of the Finance and Financial Technologies program

Abstract. This article analyzes inflation — the continuous rise in the general price level, its formation, and the tools for its containment (monetary, fiscal, as well as structural-reform measures). The purpose of the study is to identify mechanisms for stabilizing inflation in the conditions of Uzbekistan and to develop practical recommendations. Analytical and comparative methods, statistical observation, as well as national and regional experiences were applied in the work.

The research results emphasize the role of the Central Bank's inflation targeting policy and the key interest rate, as well as the importance of import diversification. The article combines theoretical and practical recommendations and outlines key measures to ensure price stability.

Keywords: Inflation, inflation targeting, monetary policy, fiscal policy, structural reforms, Central Bank, key interest rate, price stability, import diversification, external economic impacts, remittances, supply chains, economic security.

Inflyatsiya iqtisodiyotning eng muhim makroiqtisodiy ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, narxlar umumiy darajasining doimiy o'sishi sifatida tavsiflanadi. U nafaqat aholining xarid qobiliyatini pasaytiradi, balki iqtisodiy o'sish sur'atini sekinlashtirib, investitsiyalar va ishlab chiqarishga salbiy ta'sir o'tkazadi. Shu sababli, inflyatsiyani jilovlash davlatning makroiqtisodiy siyosatining eng muhim maqsadlaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy iqtisodiy nazariya va amaliyotida inflyatsiyani boshqarishning asosiy vositalari monetar va fiskal siyosatning hamda tarkibiy-islohotlarning asosiy maqsadlaridan biridir. Ushbu vositalar bir-birini to'ldiruvchi xarakterga ega bo'lib, narx barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, O'zbekistonning inflyatsion targetlash tajribasi va 2022-yilda Rossiya-Ukraina voqealarining mintaqaviy ta'siri misolida Qozog'iston bilan qiyosiy tahlilini amalga oshirganimizda mamlakatimizning tashqi ta'sirlarga chidamliligi va tashqi iqtisodiy xavflarni boshqarish yo'llari samarali ekanligini aniqlandi.

Inflyatsiyani jilovlashda keng foydalaniladigan monetar va fiskal siyosat hamda tarkibiy chora tadbirlarni bo'yicha ko'rib chiqamiz. Markaziy bank pul-kredit siyosatini narxlar barqarorligini ta'minlash maqsadidan kelib chiqqan holda ishlab chiqadi va amalga oshiradi. Narxlar barqarorligi, past va barqaror inflyatsiya darajasini anglatadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 18 noyabrdagi PF-5877-sonli "Inflyatsion targetlash rejimiga bosqichma-bosqich

o'tish orqali pul-kredit siyosatini takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoniga asosan inflyatsiya bo'yicha doimiy maqsad (target) 5 foiz etib belgilangan va ushbu maqsadga erishish vazifasi Markaziy bank zimmasiga yuklatilgan. Markaziy bank birinchi navbatda asosiy stavka orqali ta'sir o'tkazadi. Bunda qayta moliyalash foiz stavkasini ko'tarish orqali inflyatsiya darajasi yuqori, ya'ni narxlar tez o'sayotgan bo'lsa, aholining xarajatlari ortib borishi va xarid qobiliyatining sezilarli darajada kamayib ketishini oldini olish uchun qo'llaniladi. Asosiy stavka har yili 8 marta qayta ko'rib chiqilib, bu orqali tijorat banklarining kunlik qarz olish va berish jarayonida pul likvidligini saqlash uchun asosiy boshqaruv vazifasi ta'minlanadi. Asosiy stavka talab va taklif muvozanatiga ham ta'sir qiladi. Ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar kamroq kredit olishni boshlaydi. Natijada, pul taklifi hajmi qisqaradi va inflyatsiya darajasi tusha boshlaydi. Import qilinadigan tovar va xom-ashyolarning ta'minot zanjiri ham inflyatsiya darajasiga sezilarli ta'sir o'tkazadi. Misol sifatida Qozog'iston va O'zbekiston inflyatsiya darajalarining dinamikasini ko'rib o'tamiz.

1-diagrammadagi ma'lumotlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, Qozog'istondagi inflyatsiya darajasi 2022-yilda keskin oshib ketgan. Bunga asosiy sabablardan biri sifatida Rossiya-Ukraina mojarosi sababli iqtisodiy sanksiyalar qo'llanilishi, import tovarlar narxining oshishi, tranzit yo'llarning o'zgarishi, inflyatsiyaning oshishiga olib kelgan. O'zbekistonga ham bu holat ta'sir qilgan, ammo sezilarli darajada emas. Sababi, 2022-yilda O'zbekiston importining Rossiya ulushiga to'g'ri keladigan qismi 20.2% ga teng bo'lgan¹. Bu ko'rsatkich Qozog'istonda 28.5% ni tashkil qilgan².

Bu mamlakatlar temir-po'lat, o'g'it, yoqilg'i, ayrim agro-mahsulotlar va sanoat buyumlarini Rossiyadan oladi. Qozog'istonda ushbu turdagi mahsulot va xom-ashyolarning iqtisodiyotidagi ulushi hamda bozorga ta'siri sezilarli darajada


¹ O'zbekiston Respublikasi Tashqi savdo ko'rsatkichlari [Elektron resurs] // O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy sayti. – URL: <https://www.stat.uz/uz/rasmiy-statistika/merchandise-trade-2> (murojaat sanasi: 04.12.2025)

² Diversifying Kazakhstan's Exports [Elektron resurs] // OECD Publishing, Paris, 2024. – URL: https://www.oecd.org/content/dam/oecd/en/publications/reports/2024/06/diversifying-kazakhstan-s-exports_6db7322e/7f9cd8aa-en.pdf (murojaat sanasi: 04.12.2025).

katta bo'lgan. Yanada chuqurlashsak, metal va energiya sanoati Qozog'istondagi iqtisodiy faoliyat va infratuzilmaning kattagina qismini tashkil qiladi. Bu sohalardagi narxlar o'zgarishi, iste'mol narxlari indeksiga tez va yuqori ta'sir o'tkazgan. Remittansiyaning yuqori bo'lganli esa O'zbekistonga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Birlashgan millatlar tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra 2022-yilda oziq-ovqat narxlari indeksi o'rtacha 143,7 ballni tashkil etgan. Shu tariqa, oziq-ovqat narxlarining rekord darajada oshganligi ma'lum bo'lgan. Ushbu holat Qozog'iston va O'zbekistonga sezilarli darajada salbiy ta'sir o'tkazdi. Qozog'iston hukumati 20.3% dan 9.8%ga tushurish uchun 2022-yil davomida asosiy stavkani yuqoriga ko'tardi va 2022-yilning oktyabr oyida 16.0% etib belgilandi. Yil oxirida bu ko'rsatgich 16.75% ni tashkil etgan. Bu monetar siyosat orqali inflyatsiyani jilovlay oldi. Albatta bularga qo'shimcha tarzda, tashqi narxlar tushushi ham inflyatsiya darajasining pasayishiga olib keldi.

1-diagramma.

Qozog'iston va O'zbekistonning 2021-2024 yillardagi inflyatsiya darajasi



Inflyatsiyani boshqarishda faqatgina ichki iqtisodiy siyosat emas balki tashqi omillar ham muhim o‘rin egallaydi. Buning asosiy sabablaridan biri makro darajada tovar va xom-ashyo yetkazib beruvchi davlatlardagi o‘zgarishlar, katta miqdorda import qilayotgan davlatlarning iqtisodiyoti yirik eksportyor davlatlarning iqtisodiyotiga bevosita ham bilvosita ham bog‘langan bo‘lishi mumkinligi sababli, import qiluvchi davlatlarning ichki iqtisodiyotida tebranish hosil qiladi. Yuqoridagi xavfni boshqarish maqsadida bir davlatdan umumiy import hajmining 20% idan yuqori bo‘lmagan hajmda amalga oshirish kerakligi va aynan bir turdagi tovar va xom-ashyoning hajmini ham aynan bir davlatdan 30%dan oshirmagan holda xarid qilish orqali ijobiy import diversifikatsiyasini amalga oshirish kerak. Bu esa kutilmaganda narxlar tez o‘sishi orqali keladigan yuqori inflyatsiya xavfini kamaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mamedov H., Muminov N., Umarov A., Ismailov A. Iqtisodiyot nazariyasi. I tom. Darslik. Toshkent: «Bookmany print», 2022. — 440 b. ISBN 978-9943-8628-5-2.
2. Shodmonov Sh.Sh., Raxmatov M. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. Toshkent: «Zamin nashr», 2021. — 856 b.
3. Rashidov O.Yu., Alimov I.I., Toymuhamedov I.R., Tojiyev R.R. Pul, kredit va banklar. Darslik. Toshkent: «Cho‘lpon» nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011. — 328 b. ISBN 978-9943-05-403-5.
4. Omonov A.A., Qoraliev T.M. Pul va banklar. Darslik. Toshkent: «Iqtisod-Moliya», 2018. — 384 b.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy sayti [Elektron resurs]. – URL: <https://www.stat.uz> (murojaat sanasi: 05.12.2025).
6. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti [Elektron resurs]. – URL: <https://www.cbu.uz> (murojaat sanasi: 05.12.2025).
7. National Bank of Kazakhstan official website [Elektron resurs]. – URL: <https://www.nationalbank.kz> (murojaat sanasi: 05.12.2025).
8. Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD) official website [Elektron resurs]. – URL: <https://www.oecd.org> (murojaat sanasi: 06.12.2025).
9. International Monetary Fund (IMF) official website [Elektron resurs]. – URL: <https://www.imf.org> (murojaat sanasi: 07.12.2025).

10. World Bank Group official website [Elektron resurs]. – URL: <https://www.worldbank.org> (murojaat sanasi: 09.12.2025).
11. UN Comtrade Database [Elektron resurs]: International Trade Statistics Database. – URL: <https://comtrade.un.org> (murojaat sanasi: 10.12.2025).
12. Food and Agriculture Organization of the United Nations (FAO) [Elektron resurs]: FAO Food Price Index. – URL: <https://www.fao.org> (murojaat sanasi: 12.12.2025).
13. World Trade Organization (WTO) [Elektron resurs]: Country profiles. – URL: <https://www.wto.org> (murojaat sanasi: 13.12.2025).